O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

TILLAR KAFEDRASI

**“Tasdiqlayman”**
O`quv ishlari bo`yicha prorektor
S.U. Aliyev _________
sentabr 2015 yil

# OLIY TA’LIM MUASSASALARINING MUTAXASSISLIGI CHET TILI BO’LMAGAN PROFESSOR-O’QITUVCHILARINI CHET TILLARI BO’YICHA BILIM, KO’NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

# DASTURI

**Toshkent – 2015 yil**

**Tuzuvchilar :**
**X.D.Xudoyqulova -** Tillar kafedrasi mudiri, katta o’qituvchi
**X.F.Maksudova** - Tillar kafedrasi o’qituvchisi

**Taqrizchilar:**
**D.J.Buranova-** ToshPI Xorijiy Tillar va pedogogika va psixologiya kafedrasi mudiri,s.f.n.
**Kh. R. Alimova-** O’zMU Xorijiy Filologiya fakulteti katta o’qituvchisi

Ishchi dastur kafedraning 2015 yil 28 sentabrdagi yig`ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etildi Bayonnoma № 2

**Kafedra mudiri** **D.Q.Xudoyqulova**

Ishchi dastur Tillar bo’yicha Uslubiy kengashning 2015 yil 28 sentabrdagi yig`ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etildi. Bayonnoma № 2

**Tillar bo’yicha Uslubiy kengash raisi** **D.Q.Xudoyqulova**

Ishchi dastur Sanoat farmatsiyasi fakultet kengashida muhokama qilinib, foydalanishga tavsiya etildi (2015 yil 28 sentabrdagi 2 – sonli bayonnoma)

**Fakultet kengashi raisi: _______________ X. SH. Ilxomov**

Ishchi dastur MUKda ko’rib chiqildi va tasdiqlandi

2015 yil sentyabrdagi - sonli bayonnoma

# I.Kirish

Mustaqil Respublikamiz hayotida tub burilishlar sodir bo`layotgan hozirgi pallada milliy ta'lim taqdiriga aloqador qator muammolar o`z yechimini topmoqda. Fan, texnika, texnologiyalarning jadal rivojlanishi, zamonaviy bilimlarni egallashda xalqaro axborot manbalaridan foydalanish zarurati har bir oliy ta`lim muassasasi boshqaruv kadrlari va professor – o`qituvchilarining xorijiy tillarni bilish va amaliy qo`llay olishlarini talab qilmoqda. Shu boisdan, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yil 10 dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2012 yil 26 sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 278- sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2013 yil 8 maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlar ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 124- sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarining mutaxassisligi chet tili bo'lmagan professor-o'qituvchilarini chet tillari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda institut professor-o'qituvchilarining chet tillari bo'yicha bilim darajasini "Chet tillarini egallashning umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash (CEFR)" tizimining B1 darajasiga yetkazish maqsadida ingliz tilida mashg'ulotlar olib boruvchi o'qituvchilar uchun ishchi dastur tuzildi.

# II.Dasturning maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim muassasalarining mutaxassisligi chet tili bo'lmagan professor-o'qituvchilarini chet tillari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish dasturining maqsadi – ularning ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va o'quv jarayoni samaradorligini oshirishda chet tillari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlashdan iboratdir. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida chet tillari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish vazifalari:

- kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borish uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish;
- pedagogik faoliyatda chet tilini o'rganishning mustaqil boshlang'ich darajasiga erishishdan iborat.

# III.Asosiy tushunchalar

Ushbu dasturda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**Oliy ta'lim muassasalarining mutaxassisligi chet tili bo'lmagan professor-o'qituvchilarini chet tili bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish**

- professor-o’qituvchilarning kasbiy faoliyatida chet tillari bo’yicha bilimlarini muntazam yangilab borish hamda mahorat va ko’nikmalarini takomillashtirish;

**malaka oshirish muassasasi** - professor-o’qituvchilarining malakasini oshirish bo’yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

**professor-o’qituvchi** - kasbiy faoliyatida chet tili bo’yicha malakasini oshirishi kerak bo’lgan xodim.

## IV. Professor-o’qituvchilarning chet tili bo’yicha bilim, ko’nikmalarni shakllantirish mazmuni va ularga qo’yiladigan talablar

Ushbu dastur asosida 3 ta moduldan iborat kurs tashkil etiladi: 1) ilk bosqich; 2) quyi tayanch bosqich; 3) mustaqil boshlang’ich bosqich.

Kurs boshida malaka oshiruvchi professor-o’qituvchilarning chet tilini bilish darajalari turlicha bo’lishini hisobga olgan holda ularni chet tili bo’yicha bilish (tinglab tushunish, gapirish, o’qish va yozish) darajalari anikqab olinadi va olingan natija asosida kurs tinglovchilari tegishli guruxlarga ajratiladi. Har bir modulning maqsadi professor-o’qituvchilarning chet tillari bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarini keyingi darajaga ($A_0$ bilim darajasini A1ga, A1ni A2ga, A2ni B1ga) ko’tarishdan iborat:

Birinchi modul: $A_0$ ------------► $A_1$ (90 soat, 70 soat amaliy, 20 soat mustaqil)

Ikkinchi modul: $A_1$------------►$A_2$ (120 soat, 90 soat amaliy, 30 soat mustaqil)

Uchinchi modul: $A_2$ -----------►$B_1$(144 soat, 110 soat amaliy, 34 soat mustaqil)

Har bir modul so’ngida tinglovchi tilni egallaganlik darajasini aniqlash testini topshiradi va shunga ko’ra keyingi modulni o’qish xuquqini qo’lga kiritadi.

Tinglovchilarning nutq faoliyati bo’yicha ko’nikma va malakalarini izchillik bilan rivojlantirish malaka oshirish jarayonining bosh maqsadi hisoblanadi. Mazkur kurs davomida quyidagi vazifalar ilgari suriladi:

- tinglovchilarning chet tili bo’yicha egallangan bilim, ko’nikmalarini mustahkamlash;
- tinglovchilarning o’z sohalari bo’yicha matnlarni o’qish va tushuna olishlariga erishish;
- chet tilida tinglab tushunish, gapirish, o’qish, yozish hamda tarjima ko’nikma va malakalarini takomillashtirish;
- auditoriyada va mustaqil mutoalaa qilish;
- chet tili bo’yicha mustaqil ishlash va boshqalar.

***Tinglab tushunish*** - 1 va 2-modullar so’nggida tinglab tushunishda ta’lim oluvchi o’z ehtiyojlari va qiziqishlariga bevosita bog’liq bo’lgan sodda gaplar va iboralarni, yo’riqnomalarni tushuna olishi va ularga amal qilishi, xabarlardagi asosiy ma’noni tushuna olishi, muhokama etilayotgan masalaning asosiy mavzusini aniqlay olishi lozim.

Kurs yakunida (3-modul oxiri) til o’rganuvchi tanish mavzulardagi va kasbiy faoliyatga oid mavzulardagi aniq standart nutqning asosiy ma’nolarini tushuna olishi, ommabop radio va TV dasturlari, dolzarb masalalarga bag’ishlangan dasturlar va shaxsiy va kasb-hunarga oid qiziqishlarga taalluqli dasturlarning asosiy mazmunini tushuna

olishi, batafsil yo'riqdar yoki ko'rsatmalarni tushuna olish hamda ularga amal qila olishi ko'zda tutiladi.

***Gapirish*** - ushbu ko'nikmani shakllantirish jarayonida ilk va tayanch bosqichlarda tinglovchidan murojaat qila olish, taklif qila olish, uzr so'rashning kundalik shakllarini ishlata olish, qisqa muloqotda ishtirok eta olish, sodda iboralardan foydalanib tanish mavzuda o'z fikrini ifoda eta olish, tushunmaganligini bildira olish, fikr va ma'lumot almasha olish, boshqalar fikriga qo'shilish yoki qo'shilmaslikni ifodalay olish, chet tilida ma'lumot, yo'riqnomalar va boshqalar yuzasidan tegishli javoblarni qaytara olish, ma'lumotni aniqlashtirish yoki takrorlashni iltimos qila olish, odamlar, yashash yoki ish joyini, yoqtirgan/yoqtirmagan narsalar va boshqalarni tasvirlay olish talab etiladi.

Kurs yakunida tinglovchi tanish, shaxsiy qiziqishlarga oid yoki kundalik mavzulardagi suhbatlarga tayyorgarlik ko'rmasdan kirisha olish, kasbiy faoliyatga oid masalalar bo'yicha ma'lumot so'rash va berish hamda fikr almasha olish, yetarli darajada tushunarli tarzda suhbat yoki muhokamada qatnasha olish, suhbatda savollarga javob bera olish, yuzma-yuz muloqotda yoki telefon orqali uchrashuv yoki tadbir vaqti va joyini kelisha olish kabi og'zaki nutq ko'nikmalariga ega bo'lishi kutiladi.

***O'qib tushunish.*_** 1 va 2-modullar yakunida tinglovchi juda qisqa va sodda matnlarni tushuna olishi, qisqa xabarlar va xatlarni tushuna olishi, yozma ko'rsatmalarni tushuna olishi, joy yoki insonlar tasvirlangan qisqacha matnlarni tushuna olishi, dalillarga asoslangan matnlarda broshyuralar, reklamalar, gazeta e'lonlaridan ma'lumotlarni topa olishi, notanish so'zlarning ma'nosini kontekstga qarab aniqlay olishi lozim.

Kursning yakuniy bosqichida ixtisoslik sohalarida dalillarga asoslangan murakkab bo'lmagan matnlarni o'qib to'liq tushuna olish, kundalik va soxasiga oid Internet saytlaridan tegishli ma'lumotlarni topa olish va tushuna olish.

***Yozish*** - tinglovchidan qisqa xat va xabarlar yoza olish, anketani turli shaxsiy ma'lumotlar bilan to'ldira olish, shaxsiy hamda kasbiy faoliyatga oid kontekstlarda qaydlar va xabarlar yozish, standart formatga asoslangan sohaga oid hisobotlar yoza olish, rezyume va yo'llanma, xatlar yoza olish talab etiladi.

## Kursni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Modullarni o'qitishda darslik, o'quv qo'llanmalar, ma'ruza matnlarining elektron shakllari, elektron plakatlar va boshqa elektron resurslardan foydalaniladi. Mashg'ulotlar seminar-trening shaklida turli interfaol metodlardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Til urganishda interfaol usullarining yangi shakllarini ta'lim sohasiga tatbiq etish, mashqlarni tahlil qilish, maxsus testlarni yechish, portfolio topshiriqlarini bajarish, taqdimot o'tkazish orqali o'zlarining chet tili ko'nikmalarini va kasbiy malakalarini rivojlantiradilar, tajribalarini hamkasblari bilan o'rtoqlashadilar, xorijiy tilda pedagogik nutqlarini o'stirish ustida ish olib boradilar.

Barcha darslar imkoni boricha faqat o'rganilayotgan tilda olib borilishi tavsiya etiladi.

# Kurs mazmuni

**Mavzular:**

**1-modul** davomida taklif etiladigan mavzular: kundalik hayotga oid mavzulardan shaxsiy ma'lumot, oila hakqda ma'lumot, bo'sh vaqtni o'tkazish, taqvim, ob-havo, kasblar, sport, yashash joyi, shaharlar va mamlakatlar, kiyim-kechak, salomatlik, transport kabi mavzular.

Atrof-muhit bilan ijtimoiy aloqalar o'rnatishda kerak bo'ladigan mavzular, ya'ni ma'lumot so'rash, narsa xarid qilish, yoqtirgan va yoqtirmagan narsalar haqida gapirish, ruxsat so'rash, fikrini bildirish bilan bog'liq mavzular.

**2-modul** davomida taklif etiladigan mavzular: kundalik va ijtimoiy hayotga oid mavzular, jumladan shaxsiy ma'lumot, avtobiografiya, murakkab sonlar, ta'lim sohasi, turli kasblar, kundalik hayotdagi voqea va hodisalarning qisqa tasviri, qiziqishlari, kiyinish odobi, ovqatlanish, insonning xarakteri va fazilatlarini tasvirlash, san'at turlari, uy anjomlari va x.k.

Ixtisoslikka oid mavzular, jumladan ish joyi, ish rejimi, kasbining asosiy xususiyatlari va x.k.

**3-modul** davomida taklif etiladigan mavzular: kundalik va ijtimoiy hayotga oid mavzular: sayohat va turizm, biznes, ta'lim sohasi, kundalik hayotdagi voqea va hodisalar, kitob, kino va teledasturlar turlari va ularning sifati, turli mamlakatlardagi siyosiy tizim, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi, oliy o'quv yurti, atrof-muxitni muxofaza qilish, O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari, insonlar o'rtasidagi munosabatlar, xizmat ko'rsatish, ijtimoiy masalalar, jumladan yoshlar tarbiyasi, turli kasalliklar va ularning simptomlari, ixtisosligiga oid mavzular, kasbi bilan bog'liq dolzarb masalalar va h.k.

# Rivojlantiriladigan nutqiy kompetensiyalar mazmuni

## Birinchi modul

**Tinglab tushunish**

- darsga oid ko'rsatmalar va uo'qituvchi nutqi;
- sodda yo'riqnomalarni tushuna olish va ularga amal qila olish;
- savollarni tushuna olish;
- 2-3 minutlik audio formatdagi dialog va monologlarni tushuna olish;
- tanish kontekstlarda sodda autentik nutqni tushuna olish;

**Gapirish**

**Dialog**

- o'zini tanishtirish;
- minnatdorchilik izxor etish;
- iltimos bilan murojaat etish;
- ma'lumot so'rash va berish;
- kechirim surash;
- tabriklash;
- taklif etish va taklifni qabul qilish/rad etish;

- **Monolog**
- voqea-hodisa yoki tajriba haqida gapirish;
- kichik hikoya tuzish va gapirish;
- qisqa prezentatsiya qilish;
- **O'qish**

- tanish til materialidan iborat qisqa matnlarni o'qish; -tarkibida ma'nosini fahmlab olish mumkin bo'lgan ba'zi yangi so'zlar bo'lgan matnlarni o'qib tushunish;
-muayyan ma'lumotni qidirib topish uchun o'qish;
- **Yozish**
- Orfografiya;
- xabarnomalar yozish (tabriknomalar, SMS xabarlari, eslatmalar, elektron xatlar);
- anketalarni shaxsiy ma'lumot bilan to'ldirsh.

## Lingvistik kompetensiya

**Talaffuz** - tovushlarni gapda va yakka holda eshitganda farqlay olish, asosiy kommunikativ gap turlariga (darak, so'roq, buyruq gap) mos ravishda ritm va intonatsiyadan to'gri foydalana olish.
**Leksika** - mavzuga oid so'zlarni sodda matnlarda to'gri ishlata olish, so'zning yasalishi (affiksatsiya usuli va so'zlarning qo'shilishi), boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar (baynalminal so'zlar), o'rtacha 600 aktiv so'z o'zlashtirish talab etiladi.
**Grammatika** – so'z turkumlari; sintaksisning asosiy qoidalari, hozirgi va o'tgan zamon fe'l shakllari va hokazo.

## Ikkinchi modul

**Tinglab tushunish**
- darsga oid ko'rsatmalar va o'qituvchi nutqini tushunish;
- kasb va qiziqishlarga bevosita bog'lik bo'lgan gap va iboralarni tushunish;
- sodda hikoyalar, ob-havo ma'lumotlari, e'lonlar, TV va radio dasturlarning asosiy ma'nosini tushuna olish;

**Gapirish**
**Dialog**
- rasmiy va norasmiy salomlashish;
- o'zini tanishtirish;
- rozi bo'lish va rad etish;
- gapni takrorlash va aniqlashtirishni iltimos qilish;
- ma'lumot so'rash va berish;
- tabriklash;
- taklif etish va taklifni qabul qilish/rad etish;
- mavzu yuzasidan o'z fikrini bildira olish;

**Monolog**
- voqea yoki tajribani sodda hikoya qilish;
- kichik hikoya gapirib berish;
- berilgan mavzuda sodda va qisqa prezentatsiya qilish;
- tanish til materiali asosida qisqa hisobot berish;

**O’qish**
- tanish va notanish til materialidan tashkil topgan qisqa matnlarni o’qib tushunish;
- tarkibida ma’nosi taxmin qila olinishi mumkin bo’lgan ba’zi yangi so’zlar bo’lgan badiiy va media matnlarni lug’atdan foydalanib o’qish;
- sodda korrespondensiya shakllari (elektron xatlar, xabarlar va h.)ni o’qib tushunish;
- darsdan tashqari qo’shimcha matnlarni ko’z yugurtirib mustaqil o’qish.

**Yozish**
- shaxsiy xatlar yozish (qisqa xabarlar, tabriknomalar (otkritkalar, eslatmalar, elektron xatlar);
- anketalarni zarur ma’lumotlar bilan tuldirish;
- oddiy jadvallar tuzish, to’ldirish;
- matnlarning qisqacha bayonini yozma shaklda ifoda etish.

# Lingvistik kompetensiya

**Talaffuz** - gapning kommunikativ turlari (darak, so’roq, buyruq gap)ga mos ravishda ritm va intonatsiyadan to’g’ri foydalanish, til tovushlarini, gapirish ko’nikmasini rivojlantirish bilan birga nutqda ishlatishni mashq qilish.
**Leksika** - kasbiy faoliyatga oid so’zlarni, termin va so’z birikmalarini to’g’ri ishlata olish, o’rtacha 600 aktiv so’z o’zlashtirish talab etiladi.
**Grammatika** - fe’lning hozirgi, o’tgan va kelasi zamon shakllari; fe’l shakllari va sodda vaqt ravishdoshlaridan foydalangan holda bayon qilish va hikoyalarni gapirib berishda voqealarni to’g’ri ketma-ketlikda ta’riflay olish, "ammo", "va", "chunki" kabi sodda bog’lovchilardan iborat so’z birikmalari va qo’shma gaplarni bog’lash va hokazo.

# Uchinchi modul

**Tinglab tushunish**
- kasbiy faoliyatga oid mavzulardagi nutqning asosiy mazmunini tushuna olish;
- o’rganilayotgan tilning turli variantlari (aksentlar);
- ilmiy-ommabop uslubdagi nutqning asosiy mazmunini tushuna olish;
- dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlar;
- shaxsiy qiziqish va kasbiy faoliyatga oid dasturlar;
- batafsil yo’riqdar yoki ko’rsatmalarni tushuna olish va ularga amal qila olish;
- berilgan mavzudagi munozara, muhokamani tushuna olish.

**Gapirish**
**Dialog**
- iltimos bilan murojaat etish;
- muammolarni hal qilish;
- norasmiy muhokamalarda ishtirok etish;
- taklif etish va taklifni qabul qilish/rad etish;
- munozara va muhokama jarayonida o’zining shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish;
- ishonch, fikr, rozilik va rad qilishni muloyimlik bilan ifodalash;
-o’zgalar fikrini qisqacha sharxlash;
- his-tuyg’ularni ifodalash va ularga javob qaytarish.

**Monolog**
- ijtimoiy va kasbiy faoliyatga oid shxalardagi tadbir, tajriba, rejani tasvirlash;

- kasbiy faoliyat mavzusida taqdimotqkila olish;
- ilmiy ma’ruza qilish.

**O’qish**

- kasbiy faoliyatga oid sodda matnlarni ukib tushunish;
- xatlar, elektron xatlar, broshyuralar, qo’llanmalar, SMS xabarlari, qisqa rasmiy hujjatlarni o’qish;
- kasbiy faoliyatga oid autentik matnlarni sinchiklab o’qib tushunish;
- ilmiy-ommabop va OAV materiallarini o’qish;

**Yozish**

- rasmiy hujjatlar (xatlar va elektron xatlar, hisobotlar, xizmatlarni taklif etish xati, yo’llanma, xatlar, anketa shakllari va h.);
- shaxsiy korresspondensiya (xatlar, elektron xatlar va qisqa xabarlar).

## Lingvistik kompetensiya

Talaffuzdagi xatolar muloqotga to’siq bo’lmaydi.

**Leksika** - kasbiy faoliyatga oid lug’at boyligini oshirish, leksikani kontekstda to’g’ri qo’llash,o’rtacha 600 aktiv so’z o’zlashtirish talab etiladi.

**Grammatika** - avvalgi darajalarda o’zlashtirilgan grammatik materialni ommaviy va kasbiy faoliyatga oid kontekstlarda to’g’ri qo’llash, fe’l zamonlari, modal so’zlar, sifat va ravishning qiyosiy darajalari, determinativ so’zlar, predloglar va hokazo.

## Dasturning informatsion-metodik ta’minoti

- jarayon davomida o’rganish;
- muhokama;
- loyiha ishi;
- mustaqil ish;
- taqdimot;
- potrfolio qaydlari;
- so’rovnoma o'tkazish;
- Internet va boshqa manbalardan mavzularga oid ma’lumotlar to’plash, rolli o’yinlar;
- turli nutq vaziyatlari;
- video va audio vositalarga yozilgan tinglash uchun mo’ljallangan matnlar, topshirik va vazifalar;
- ta’lim olish kundaligini yuritish.

## Mustaqil ishni tashkil etishning shakli v a mazmuni

Ta’lim oluvchining mustaqil ishni bajarishida uning til bilish darajasi inobatga olingan holda tashkil etiladi va quyidagi shakllarda bo’lishi mumkin:

- tavsiya etilgan internet saytlarida taqdim etilayotgan darajali testlarni bajarish;
- tanlangan mavzu asosida taqdimot qilish uchun materiallar to’plash;
- til o’rganuvchi portfoliosi ustida ishlash;
- mutaxassislik fani bo’yicha internet matnlar topish va ulardagi kalit so’zlar bilan ishlash;
- auditoriyadan tashqari yuklatilgan nazorat mashqlari (fonetik, leksik, so’z yasash va grammatika)ni bajarish;

- o’z nutqini audio formatda yozib olish va xatolar ustida ishlash;
- til bilish darajasidan kelib chiqqan holda yozma matn ustida ishlash. Bunda 1-modul davomida 100-150ta, 2-modul davomida 250-300 ta va 3-modul davomida 400-450 ta so’zdan iborat matn (xat, hisobot va h.k.) yozish;
- xajmi 150 tadan (A1) 1800 (B1) gacha bosma belgidan iborat matnni mustaqil o’qish, muhokama yoki tarjima qilish;
- mustaqil o’qish (darsdan tashqarida o’zi xohlagan matnni tinglashi, talaffuzi ustida ishlanshi).

Mustaqil ish mazmuni va shakli kursning turli darajadagi bosqichlarini, ixtisoslik yo’nalshi xususiyatlarini hisobga olgan holda kengaytirilishi va o’zgartirilishi mumkin.

-

## V. **Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilarining chet tillar bo’yicha malakasini oshirishni tashkillashtirish**

Oliy ta’lim muassasalari ushbu dasturga muvofiq professor-o’qituvchilarining chet tillar bo’yicha malakasini oshirishga doir ko’rsatmalarni ishlab chiqadi, unda professor-o’qituvchilarning malaka darajasini va kasbiy ehtiyojini hisobga olgan holda ularning malakasini oshirish shakli, davriyligi va davom etish muddati belgilanadi.

Malaka oshirish quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- malaka oshirish muassasasida tegishli o’quv rejalar va dasturlar bo’yicha o’qitish;
- ta’lim muassasasida trenerlarni taklif etgan holda ixtisoslashtirilgan dasturlar bo’yicha o’qitish;
- elektron manbalar bo’yicha o’qitish;
- masofadan o’qitish;
- chet tillarga ixtisoslashgan malaka oshirish muassasalarida til bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda o’qish.

Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilarining kasbiy faoliyatida chet tillar bo’yicha malakasini oshirish belgilangan tartibda tegishli ta’lim muassasalari hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muassasalarida amalga oshiriladi.

# Ingliz tilini o'rganuvchi o'qituvchilar uchun amaliy mashg'ulotlar mavzulari

**Lesson plan on Practical English for the teaching staff of the Tashkent Pharmaceutical Institute**

| LEVELS $A_1$-$A_2$ October - January | | | | hours | duration |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Life changes and events | Past Continuous Tense | Sharing past experiences. Asking special questions. | 4 | 5-10.10. |
| 2 | Testing | | | 4 | 12-17.10. |
| 3 | Travel and tourism | Future Continuous Tense | Making travel arrangements. Making predictions | 4 | 19-24.10 |
| 4 | Testing | | | 4 | 26-31.10 |
| 5 | Reading | | Working on the text | 4 | 2-7.11 |
| 6 | Health | *Have to* and *need to* for obligation | Making obligations | 4 | 9-14.11 |
| 7 | Testing | | | 4 | 16-21.11 |
| 8 | Reading | | Working on the text | 4 | 23-28.11 |
| 9 | Education | The Passive Voice | Talking about educational system | 4 | 30-5.12 |
| 10 | Testing | | | 4 | 7-12.12 |
| 11 | Housework and cooking | *Make, do* and *have* phrases | Talking about housework | 4 | 14.19.12 |
| 12 | Reading | | Working on the text | 4 | 21-25.12 |
| 13 | Testing | | | 2 | 4.01.16 |
| 14 | Daily program | *When* and *while, as soon as* | Describing details of one's day | 2 | 5.01.16 |
| 15 | Reading | | Working on the text | 2 | 6.01.16 |
| 16 | Final Testing for Module | | | 2 | 8.01.16 |

| LEVELS $A_2$-$B_1$ February - May | | | | hour | duration |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Life's an adventure | Infinitive of purpose | Making suggestions | 4 | 8-13.02 |
| 2 | Life's an adventure | Infinitive of purpose | Making suggestions | 4 | 15.20.02 |
| 3 | Testing | | | 4 | 22-27.02 |
| 4 | My research work | Present and Past Perfects | Speaking about one's research work | 4 | 29-5.03 |
| 5 | My research work | Perfect Continuous Tense | Speaking about one's research work | 4 | 7-12.03 |
| 7 | Reading | | Working on the text | 4 | 14.19.03 |
| 8 | Shopping | Question tags | Making conversations | 4 | 21-26.03 |
| 9 | Sport | *What shall I…..?* | Writing a postcard | 4 | 28.03-2.04 |
| 10 | Testing | | | 4 | 4-09.04 |
| 11 | Reading | | Working on the text | 4 | 11-16.04 |
| 12 | Personality | *So* and *such. Although and however* | Describing people's personality | 4 | 18-23.04 |
| 13 | Personality | *So* and *such. Although and however* | Describing people's personality | 4 | 25-30.04 |
| 14 | Testing | | | 2 | 2-7.05 |
| 15 | You can make it if you try | Conditional sentences | Talking about future arrangement | 2 | 9-14.05 |
| 16 | Finel Testing for Module | | | 2 | 16-21.05 |

**Lesson plan on Practical English for the teaching staff of the Tashkent Pharmaceutical Institute**

| | LEVELS $B_1$-$B_2$ October - January | | | hour | duration |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Academic fields | Phrasal verb "bring" | Asking special questions. | 4 | 5-10.10. |
| 2 | Testing | | | 4 | 12-17.10. |
| 3 | Scientific Breakthroughs | Reporting Verbs | Oriental Contributions to civilization | 4 | 19-24.10 |
| 4 | Testing | | | 4 | 26-31.10 |
| 5 | Reading | | Working on the text | 4 | 2-7.11 |
| 6 | Meeting society needs | *Phrasal verb "come"* | Making obligations | 4 | 9-14.11 |
| 7 | Testing | | | 4 | 16-21.11 |
| 8 | Reading | | Environmental problems | 4 | 23-28.11 |
| 9 | Networking | Expressing Certainly, Probability, Doubt, generalizing Qualifying | Talking about future of the network | 4 | 30-5.12 |
| 10 | Testing | | | 4 | 7-12.12 |
| 11 | Professional Contentment | *Time expressions* | Talking about can research be without satisfaction | 4 | 14.19.12 |
| 12 | Reading | | Working on the text "Satisfaction" | 4 | 21-25.12 |
| 13 | Testing | | | 2 | 4.01.16 |
| 14 | Academic degree | *Degrees of Adjectives and Adverbs* | Listening the educational system of G.B | 2 | 5.01.16 |
| 15 | Reading | | Working on the text "Education System of Uzbekistan" | 2 | 6.01.16 |
| 16 | Final Testing for Module | | | 2 | 8.01.16 |

| LEVELS $B_1$-$B_2$ February - May | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1** | **Up-to date devices** | **Prepositions** | **Speaking about technological advances** | **4** | **8-13.02** |
| **2** | **Immortal tracks** | **Relative clauses** | **Text "Who invented X-rays?"** | **4** | **15.20.02** |
| **3** | **Testing** | | | **4** | **22-27.02** |
| **4** | **Personal Ambitions in science** | **Tag question** | **Listening the radio programme** | **4** | **29-5.03** |
| **5** | **My research work** | **Perfect Continuous Tense** | **Speaking about one's research work** | **4** | **7-12.03** |
| **7** | **Reading** | | **Working on the text "Set Ambitious Goals"** | **4** | **14.19.03** |
| **8** | **Problem cause** | **Linking words/phrases** | **Making conversations** | **4** | **21-26.03** |
| **9** | **Solutions** | ***Need+to / need+ing*** | **Listening solutions to drug abuse** | **4** | **28.03-2.04** |
| **10** | **Testing** | | | **4** | **4-09.04** |
| **11** | **Reading** | | **Working on the text** | **4** | **11-16.04** |
| **12** | **Motivation and insparation** | ***…done…<br>…had better…<br>…need…*** | **Speak about motivation** | **4** | **18-23.04** |
| **13** | **Personality** | ***So* and *such. Although and however*** | **Describing people's personality** | **4** | **25-30.04** |
| **14** | **Testing** | | | **2** | **2-7.05** |
| **15** | **Field of interest** | **Future perfect Continious** | **Talking about future arrangement** | **2** | **9-14.05** |
| **16** | **Final Testing for Module** | | | **2** | **16-21.05** |

**Lesson plan on Practical English for the teaching staff of the Tashkent Pharmaceutical Institute**

| LEVELS $B_2$-C October - January | | | | | duration |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | The kick-off meeting | Job profiles, professions and departments | Providing information introducing oneself,one`s field and projects | 4 | 5-10.10. |
| 2 | The kick-off meeting | New drug development and launches | Summerising action points | 4 | 12-17.10. |
| 3 | The kick-off meeting | Cultural differences in marketing drugs and medicine | Writing job ads | 4 | 19-24.10 |
| 4 | Testing | | | 4 | 26-31.10 |
| 5 | Substance discovery and product development | A new chemical entity (NCE) | Asking about drug discovery and drug development | 4 | 2-7.11 |
| 6 | Substance discovery and product development | *Drug dosage forms* | Talking about time periods | 4 | 9-14.11 |
| 7 | Substance discovery and product development | *Categories of drugs* | Asking for and giving opinions | 4 | 16-21.11 |
| 8 | Testing | | | 4 | 23-28.11 |
| 9 | Quality assurance and auditing | Good pharmaceutical industry practice(G,P) | Asking questions during an audit | 4 | 30-5.12 |
| 10 | Quality assurance and auditing | Quality assurance audits | Suggesting corrective action | 4 | 7-12.12 |
| 11 | Quality assurance and auditing | *Standard operating procedures* | Discussing SOPs | 4 | 14.19.12 |
| 12 | Testing | | | 4 | 21-25.12 |
| 13 | Ready for testing in live | *Preclinical testing* | Describing a process Getting information | 2 | 4.01.16 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **organisms** | | | | |
| **14** | **Ready for testing in live organisms** | ***Clinical testing*** | **Making suggestions Linking ideas** | **2** | **5.01.16** |
| **15** | **Ready for testing in live organisms** | ***Dealing with authorities Experimentaldrugs on trial*** | **Requesting information and responding directly** | **2** | **6.01.16** |
| **16** | **Final Testing for Module** | | | **2** | **8.01.16** |

**LEVELS B$_{2-}$ C February - May**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1** | **Up-to date devices** | **Prepositions** | **Speaking about technological advances** | **4** | **8-13.02** |
| **2** | **Immortal tracks** | **Relative clauses** | **Text "Who invented X-rays?"** | **4** | **15.20.02** |
| **3** | **Testing** | | | **4** | **22-27.02** |
| **4** | **Personal Ambitions in science** | **Tag question** | **Listening the radio programme** | **4** | **29-5.03** |
| **5** | **My research work** | **Perfect Continuous Tense** | **Speaking about one's research work** | **4** | **7-12.03** |
| **7** | **Reading** | | **Working on the text "Set Ambitious Goals"** | **4** | **14.19.03** |
| **8** | **Problem cause** | **Linking words/phrases** | **Making conversation s** | **4** | **21-26.03** |
| **9** | **Solutions** | ***Need+to / need+ing*** | **Listening solutions to drug abuse** | **4** | **28.03-2.04** |
| **10** | **Testing** | | | **4** | **4-09.04** |
| **11** | **Reading** | | **Working on the text** | **4** | **11-16.04** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **12** | **Motivation and insparation** | ***…done…*** <br> ***…had better…*** <br> ***…need…*** | **Speak about motivation** | **4** | **18-23.04** |
| **13** | **Personality** | ***So* and *such.*** <br> ***Although and however*** | **Describing people's personality** | **4** | **25-30.04** |
| **14** | **Testing** | | | **2** | **2-7.05** |
| **15** | **Field of interest** | **Future perfect Continious** | **Talking about future arrangement** | **2** | **9-14.05** |
| **16** | **Final Testing for Module** | | | **2** | **16-21.05** |

# Mustaqil ish mavzulari

## Self Study plan on Practical English for the teaching staff of the Tashkent Pharmaceutical Institute

## For LEVELS $B_1$-$B_2$

| № | Topics | Recommended tasks | Hours | Deadline |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 1"Wonders of the modern world"<br>2. Continuous Tenses | 1. Free writing on the topic<br>2. To prepare test materials<br>3. To prepare tables<br>4. Cluster | 4 | November 20 |
| 2 | 1.The painter and the writer the lives of Pablo Picasso and Ernest Hemingway | 1. Free writing on the topic<br>2. To prepare test materials<br>3. To prepare tables<br>4. Cluster | 4 | December 10 |
| 3 | 1. Education and upbringing<br>2. Health is above wealth<br>3. Passive voice | 1. Free writing on the topic<br>2. To prepare test materials<br>3. To prepare tables<br>4. Cluster | 4 | December 26 |
| 4 | 1. My favourite national food<br>2. My daily routine or leisure activities<br>3. Make, do, have, take | 1. Free writing on the topic<br>2. To prepare test materials<br>3. To prepare tables<br>4. Cluster | 2 | January 17 |
| 4 | 1. Good and bad habits of youth<br>2. Used to | 1. Free writing on the topic<br>2. To prepare test materials<br>3. To prepare tables<br>4. Cluster | 2 | January31 |

# For LEVELS $B_1$-$B_2$

| № | Topics | Recommended tasks | Hours | Deadline |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 1. My future plans.<br><br>2. Infinitive of purpose | 1. Free writing on the topic<br>2. To prepare test materials<br>3. To prepare tables<br>4. To prepare resume | 4 | March 7 |
| 2 | 1.“ My research work”<br>2.Perfect Tenses | 1. Free writing on the topic<br>2. To prepare test materials<br>3. To prepare tables<br>4. Cluster | 4 | March 28 |
| 3 | 1.I am good at….. , I am bad at<br>2. Success and failure | 1. Free writing on the topic<br>2. To prepare test materials<br>3. To prepare tables<br>4. Cluster | 4 | April 11 |
| 4 | 1. Dangerous Sports<br>2. Looking good<br>3 Conditional sentences | 1. Free writing on the topic<br>2. To prepare test materials<br>3. To prepare tables<br>4. Cluster | 2 | April 25 |
| 5 | 1.Furniture and appliances<br>2.Political system of Uzbekistan | 1. Free writing on the topic<br>2. To prepare test materials<br>3. To prepare tables<br>4. Cluster | 2 | May 9 |
| 6 | 1. A good adviser<br>2. Telling stories | 1. Free writing on the topic<br>2. To prepare test materials<br>3. To prepare tables<br>4. Cluster | 2 | May 30 |

## Asosiy adabiyotlar:

1. Scale up Work Book course 2, Tashkent-2015

2 Scale up Work Book course 3, Tashkent-2015

3. Scale up Student`s Book course 2, Tashkent-2015

4. Scale up Student`s Book course 2, Tashkent-2015

5. Teaching Programme "Extra English". Oxford, 2013.

6. New Headway Elementary Work book. Oxford, 2013.

## Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Michaela Bucher, Kathy Jeahning, Gloria Matzing and Tanya Weinder." English for the Pharmacuetical Industry" Oxford
2Raymond Murphy. English Grammar in Use. Moscow, 2010.

3. Марковина И.Ю., Громова Г. Е.
"Английский язык". Грамматический практикум для фармацевтов. Москва, 2006.

4. А.К.Пулатов. "Английский язык". Учебное пособие и справочник. Ташкент, 1998.

5.Inglizcha-ruscha, ruscha-inglizcha, inglizcha-o'zbekcha lug'atlar (barcha nashrlari).

6 .Don Shiach. How to write essay. – Oxford. 2009.

## Internet saytlari:

1.www.toefl.com
2.www.englishtrairing.ru
3.www.lingua.ru
4.www.teachingenglish.org.uk
5.www.onestopenglish.com
6.www.businessenglishonline.net
7. www.elgazette.com